

PROBATSIIYA XIZMATINING JAMIYAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI O'RNI: TAHLIL VA ISTIQBOLLAR

Xursanova Zarina Anvarovna

TerDU Yuridik fakulteti 4-bosqich talabasi

Irnazarov Shuxrat Najmetdinovich

*Termiz davlat universiteti "Jinoyat huquqi
va fuqarolik protsessi" kafedrasi o'qituvchisi*

ANNOTATSIYA

Probatsiya tizimi - jinoiy jazolarni ijro etishning muqobil mexanizmi sifatida, shuningdek, jinoyatchilarni jamiyatga qayta moslashtirish va qayta jinoyatchilik darajasini kamaytirish vositasi sifatida katta ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotda O'zbekiston va Buyuk Britaniya tajribalari asosida probatsiya faoliyati, uning samaradorligini oshirish yo'llari, nazorat ostidagi shaxslarning reabilitatsiyasi va ochiq elektron axborot tizimlari orqali ma'lumotlarni boshqarish masalalari tahlil qilinadi. Xorijiy va mahalliy qonunchilik, shuningdek, so'nggi besh yil ichidagi Buyuk Britaniya probatsiya statistikasi asosida tizimning samaradorligi va ijtimoiy ahamiyati ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari probatsiya xizmatining rivojlanishi, reabilitatsiya standartlarini joriy etish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bo'yicha ilmiy va amaliy tavsiyalarni shakllantirishga yordam beradi.

АННОТАЦИЯ

Система пробации является альтернативным механизмом исполнения уголовных наказаний и играет важную роль в реабилитации правонарушителей и снижении уровня рецидива. В данном исследовании анализируется деятельность пробации в Узбекистане и Великобритании, пути повышения её эффективности, реабилитация лиц, находящихся под надзором, а также управление информацией через открытые электронные системы. На основе отечественного и зарубежного законодательства, а также статистики пробации Великобритании за последние пять лет рассматриваются эффективность и социальная значимость системы. Результаты исследования способствуют формированию научных и практических рекомендаций по развитию службы пробации, внедрению стандартов реабилитации и укреплению общественного контроля.

ABSTRACT

The probation system serves as an alternative mechanism for the execution of criminal penalties and plays a significant role in the reintegration of offenders into society while reducing recidivism rates. This study analyzes probation activities in Uzbekistan and the United Kingdom, ways to enhance their effectiveness, the

rehabilitation of individuals under supervision, and the management of information through open electronic systems. Based on both domestic and foreign legislation, as well as UK probation statistics from the past five years, the effectiveness and social significance of the system are examined. The results of the study provide scientific and practical recommendations for the development of probation services, the implementation of rehabilitation standards, and the strengthening of public oversight.

Kalit soʻzlar: *probatsiya, jinoyat-ijroiya tizimi, nazorat ostidagi shaxslar, reabilitatsiya, qayta jinoyatchilik, elektron axborot tizimi, UK probatsiya tajribasi, Oʻzbekiston probatsiya tizimi.*

Ключевые слова: *Пробация, уголовно-исполнительная система, лица, находящиеся под надзором, реабилитация, рецидивизм, электронная информационная система, опыт probation Великобритании, система probation Узбекистана.*

Keywords: *Probation, penal system, individuals under supervision, rehabilitation, recidivism, electronic information system, UK probation experience, probation system of Uzbekistan.*

Kirish

Soʻnggi yillarda mamlakatimizda jazoni ijro etish tizimini isloh qilish, jinoiy qaytishni kamaytirish va mahkumlarni jamiyatga qayta moslashtirish boʻyicha keng koʻlamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonning asosiy maqsadi — jazo ijrosini faqat izolyatsiya bilan cheklab qoʻymasdan, balki shaxsni tuzatish va uni ijtimoiy hayotga qaytarish jarayonini samarali tashkil etishdir. Shu maqsadda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-noyabrdagi “Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Qaroriga binoan Probatsiya xizmati tashkil etilib, 2019-yil 1-yanvardan oʻz faoliyatini boshladi.

Xorij tajribasi shuni koʻrsatadiki, probatsiya institutidan toʻgʻri foydalanish takroriy jinoyatchilikni kamaytirishda muhim omil boʻlib xizmat qiladi. Bu tizim jazoni ijro etish muassasalaridagi mahbus va mahkumlar sonini qisqartiradi, davlatning penitensiar sarf-xarajatlarini kamaytiradi va eng muhimi, jinoyatchining yanada ogʻir jinoyat sodir etish ehtimolini pasaytiradi. Probatsiya xizmati ilk bor 1887-yilda Buyuk Britaniyada joriy etilgan boʻlib, ingliz tilidagi “probation” soʻzi “sinov”, “nazorat ostidagi muddat” degan maʼnoni anglatadi. Bugungi kunda xalqaro amaliyotda probatsiya, asosan, ozodlikdan mahrum etish bilan bogʻliq boʻlmagan jazolarni ijro etish va ushbu jarayonda nazoratni taʼminlashga qaratilgan. Ayniqsa, Buyuk Britaniya bu yoʻnalishda eng katta tajribaga ega davlatlardan biri hisoblanadi. Oʻtgan asrning 30–40-yillarida bu mamlakatda jinoyatchilarning qariyb uchdan bir qismiga probatsiya qoʻllanilgan¹. Hozirgi kunda probatsiya faoliyati 1993-yildagi **“Probation Service**

¹ “Probation Institute – the experience of foreign countries” — Gulnoza YUSUPDZHANOVA, Tashkent State

Act” asosida tartibga solinadi va bir nechta muhim funksiyalarni o‘z ichiga oladi. Jumladan, probatsiya rejimi qo‘llanganda shaxs 1 yildan 3 yilgacha bo‘lgan muddat davomida probatsiya xizmati nazoratida bo‘ladi. Ushbu nazorat sud hukmiga asosan belgilanadi va mahkumning shaxsiy holati bo‘yicha maxsus tahlil o‘tkazilgandan so‘ng kuchga kiradi.

Bu boradagi tajribalar shuni ko‘rsatadiki, probatsiya instituti jinoyatchilikning oldini olish, takroriy huquqbuzarliklarni kamaytirish va jamiyat xavfsizligini ta‘minlashda juda samarali vosita hisoblanadi.

Asosiy qism

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-avgustdagi 938-son **“Probatsiya to‘g‘risida”gi qonuni** hamda Jinoyat-ijroiya huquqi darsliklarida probatsiya tushunchasiga tarif berilgan bo‘lib, unga ko‘ra Probatsiya - bu jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan qo‘llaniladigan turli choralar majmui hisoblanadi. Unga muayyan huquqlardan mahrum qilish, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari va ozodlikni cheklash kabi jazolarni ijro etish kiradi. Shu bilan birga, probatsiya nafaqat jazoni ijro etishga qaratilgan, balki mahkumlarga ijtimoiy, huquqiy va tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatish, huquqbuzarliklarning oldini olish va ularning yuzaga kelish sabablarini aniqlash hamda bartaraf etish kabi muhim vazifalarni ham o‘z ichiga oladi. Probatsiya tizimi shaxsning jamiyatga qaytish jarayonini qo‘llab-quvvatlash va ularni ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli integratsiyalashga yordam beradigan samarali vosita sifatida qaraladi.

Probatsiya xizmatining tizimiga to‘xtaladigan bo‘lsak, u bir nechta darajadagi tuzilmalarni o‘z ichiga oladi. Eng yuqori darajada O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti probatsiya xizmatining markaziy apparati faoliyat yuritadi. Shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari hamda boshqa viloyatlar ichki ishlar boshqarmalarida probatsiya boshqarmalari yoki bo‘limlari mavjud. Mahalliy darajada esa tuman va shahar probatsiya bo‘linmalari ishlaydi, ular hududlardagi probatsiya faoliyatini amalga oshirishga mas‘uldir.

Probatsiya xizmati o‘z faoliyatida belgilangan huquqlar va majburiyatlarga ega bo‘lib, ular shaxsni nazorat qilish, ularni ijtimoiy hayotga qaytarish va qonunchilikni ta‘minlashga qaratilgan.

Huquqlari qatoriga quyidagilar kiradi: probatsiya nazoratidagi shaxslardan qonunchilikka rioya etishni talab qilish, ularning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni tekshirish, ozodlikni cheklash jazosi ostidagi shaxslarning taqiqlarga rioya etilishini nazorat qilish, shaxsiy ko‘rik va ularning ashyolarini tekshirish; shuningdek, davlat organlari, nodavlat tashkilotlar va mahalliy jamoalarni ijtimoiy moslashtirish ishlariga jalb qilish, mastlik holatini aniqlash va jamoat tarbiyachilari yoki murabbiylarni biriktirish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish huquqi mavjud. Majburiyatlari esa

probatsiya nazoratidagi shaxslar bilan bog'liq axborotlarni taqdim etish, ularni nazorat tartibi va majburiyatlari bilan tanishtirish, sud tomonidan belgilangan taqiqlarga rioya qilinishini tekshirish, ijtimoiy moslashtirish dasturlarini amalga oshirish va tegishli axborot tizimida hisob yuritish kabi vazifalarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, probatsiya xizmati shaxslarning genom bo'yicha davlat ro'yxatiga olinishi, uylariga kirilgan hollardan prokurorga xabardor qilish va sudga taqdimnomalar kiritish kabi majburiyatlarni ham bajaradi².

Shu tariqa, probatsiya xizmatining huquq va majburiyatlari jamiyatdagi xavfsizlikni ta'minlash va shaxslarni ijtimoiy hayotga qaytarishdagi muhim vosita sifatida amalga oshiriladi.

- O'zbekistonda probatsiya tizimi jinoyat sodir etgan shaxslarni jazoni o'tashdan oldin, o'tayotgan paytda yoki ozodlikka chiqqandan so'ng jamiyatga qayta moslashtirish, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlash hamda takror jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan muhim institut hisoblanadi. Probatsiya xizmati faoliyati bo'yicha ochiq ma'lumotlar asosan Ichki ishlar vazirligi, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) hamda ayrim rasmiy axborot portallarida yoritib boriladi. Ichki ishlar vazirligi probatsiya tizimi bo'yicha qonunchilik ijrosi, nazorat tartiblari, rehabilitatsiya ishlari, jamoatchilik bilan hamkorlik va muqobil jazo choralaridan foydalanish jarayonlarini muntazam ravishda yoritib boradi. Rasmiy axborotlarda probatsiya xizmati tomonidan belgilangan nazorat talablari, ijtimoiy-huquqiy ko'mak shakllari, shaxs bilan individual profilaktika olib borish yo'nalishlari haqida ma'lumot beriladi³.

Rivojlangan davlatlardan **Buyuk Britaniya**dagi probatsiya xizmati faoliyatini solishtiradigan bo'lsak, ushbu davlatning probatsiya tizimi yuqori darajada institutsional rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Buyuk Britaniyada probatsiya tizimi bosqichma-bosqich shakllanib kelgan bo'lsa-da, uning zamonaviy ko'rinishining asosiy huquqiy poydevori sifatida 1993-yilda qabul qilingan **Probation Service Act**⁴ muhim o'rin egallaydi. Ushbu hujjat probatsiya xizmatining tuzilmasi, vazifalari va sud jarayonidagi o'rnini aniq belgilab bergan. Qonun sudlar uchun pre-sentence report - ya'ni jinoyatchining shaxsi, xavf darajasi va rehabilitatsiya imkoniyatlarini tahlil qiluvchi hisobotni probatsiya xodimlari tomonidan tayyorlashini majburiy tartibga kiritgan. Bu sudlar tomonidan qamoqdan tashqari jazo choralarini to'g'ri qo'llashga yordam beradi. Shuningdek, ushbu qonun probatsiya xizmati zimmasiga jinoyatchilarni nazorat qilish bilan birga, ularni jamiyatga qayta moslashtirish, rehabilitatsiya dasturlariga jalb qilish, giyohvandlik yoki xulq-atvor muammolarini bartaraf etishga ko'maklashish kabi vazifalarni ham yuklagan. 1993-yilgi qonun

² <http://lex.uz/uz/docs/-7050441> Probatsiya to'g'risida


³ O'zbekiston Respublikasi Hukumat portal. <https://share.google/iryTX66nnIr4aaoty>

⁴ <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1993/47/enacted>

Buyuk Britaniyada jamoat asosidagi jazolarni keng qo'llash, jazoni ijro etish muassasasining yuklamasini kamaytirish va qayta jinoyatchilikni oldini olish siyosatining huquqiy poydevorini yaratgan.

Buyuk Britaniyada probatsiya faoliyati **HM Prison and Probation Service (HMPPS)**⁵ tomonidan boshqariladi va uning asosiy vazifalari, me'yoriy huquqiy tartiblari hamda jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi roli **gov.uk**⁶ rasmiy portalida ochiq e'lon qilinib boriladi. Ushbu portalda probatsiya nazoratida bo'lgan shaxslar soni, qayta jinoyatchilik darajasi (reoffending rate), reabilitatsiya dasturlari, jamoat asosidagi jazolar, xodimlar malakasi kabi statistik va tahliliy ma'lumotlar muntazam yangilanadi.

Quyidagi grafik Buyuk Britaniya probatsiya tizimida so'nggi 5 yil davomida nazorat ostidagi shaxslar sonining o'zgarishini aks ettiradi.



Yuqoridagi raqamlardan ko'rinib turibdiki, so'nggi besh yil ichida Buyuk Britaniyada probatsiya nazorati ostidagi shaxslar soni barqaror tarzda oshib borib, 2020-yil yakunidagi 223.973 nafardan 2025-yil mart holatiga kelib 241.540 nafarni tashkil etgan⁷, ya'ni bu davrda taxminan 17.500 nafarga ko'paygan. Bu esa probatsiya xizmatining ish yukining ham sezilarli darajada oshganini ko'rsatadi.

Buyuk Britaniya tajribasida probatsiya xizmati nafaqat nazoratni amalga oshiradi, balki jinoyatchilarni ijtimoiy hayotga qayta integratsiya qilish, psixologik yordam, bandlikka ko'maklashish, giyohvandlikka qarshi reabilitatsiya, oilaviy mediatsiya kabi keng ko'lamli xizmatlarni ham ko'rsatadi. Eng muhim jihatlaridan biri

⁵ GOV.UK. <https://share.google/CFD7Vp5L8q4xMQ1Ja>

⁶ GOV.UK. <https://share.google/SB3talK9WO9yPIvBo>

⁷ GOV.UK. <https://share.google>

shundaki, barcha ma'lumotlar ochiq bo'lib, fuqarolar, tadqiqotchilar va jamoatchilik uchun erkin foydalanish imkoniyati yaratilgan.

- O'zbekistonda esa probatsiya tizimi so'nggi yillarda izchil shakllanib, rivojlanib borayotgan bo'lishiga qaramay, statistik ma'lumotlar bazasi, tizimning haqiqiy yuklamasi, shaxslar kategoriyasi yoki qayta jinoyat sodir etish ko'rsatkichlari bo'yicha ochiq, muntazam yangilanib turuvchi rasmiy elektron platforma mavjud emas. Probatsiya faoliyati bo'yicha ma'lumotlar asosan Ichki ishlar vazirligi va Ombudsmanning rasmiy sahifalarida yoritiladi, biroq ma'lumotlar hajmi Buyuk Britaniya tajribasiga qaraganda ancha cheklangan.

Shu nuqtai nazardan olganda, Buyuk Britaniya probatsiya xizmati ochiqlik, shaffoflik, statistik tizimning muntazamligi va rehabilitatsiya dasturlarining ko'lam bilan ajralib turadi. O'zbekiston amaliyoti esa hozirda faol rivojlanish bosqichida bo'lib, tizimni takomillashtirish, xizmat jarayonlarini raqamlashtirish va ochiq ma'lumotlar bazasini yaratish ehtiyoji mavjud.

Shu o'rinda probatsiya tizimini takomillashtirish bo'yicha qonunchilikka kiritilishi mumkin bo'lgan asosiy yo'nalishlardan birini ko'rib chiqish mumkin:

- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida probatsiya nazorati ostidagi shaxslar bo'yicha ochiq statistik ma'lumotlarni jamlovchi yagona elektron platforma mavjud emas. Hozirgi kunda probatsiya xizmatining faoliyati, nazorat ostidagi shaxslarning umumiy soni, ularning toifalari, qo'llanilayotgan rehabilitatsiya dasturlari, qayta jinoyatchilik darajasi kabi ko'rsatkichlar turli idoralar darajasida yuritiladi va ularning barchasi jamoatchilik uchun to'liq ochiq shaklda taqdim etilmaydi. Shu sababli probatsiya tizimi samaradorligini baholash, ilmiy tadqiqotlar olib borish, hududlar bo'yicha holatni solishtirish yoki xalqaro tajribalar bilan qiyoslash jarayonida zarur ma'lumotlar yetishmaydi. Bunday holat probatsiya xizmatining ochiqligi, shaffofligi va jamoatchilik nazoratining ta'minlanishiga ham to'sqinlik qiladi.

Taklif: probatsiya nazorati ostidagi shaxslar, qo'llanilayotgan rehabilitatsiya choralari, retsidiv jinoyatchilik darajasi, profilaktik ishlar ko'lam va probatsiya xizmati samaradorligi bo'yicha yillik statistik ma'lumotlar jamlanib boriladigan maxsus ochiq elektron axborot tizimini yaratish maqsadga muvofiq. Ushbu platforma aholiga, tadqiqotchilarga va xalqaro tashkilotlarga ochiq bo'lishi, ma'lumotlar muntazam yangilanib borilishi, shuningdek, rehabilitatsiya jarayonlarining haqiqiy natijalarini tahlil qilish imkonini berishi lozim.

Mazkur taklif probatsiya tizimida ochiq elektron axborot platformasini yaratish orqali funksional, xavfsiz va xalqaro standartlarga mos mukammal yondashuvni shakllantiradi.

Xulosa

Yuqoridagi qiyosiy tahlil asosida ko'rinadiki, probatsiya tizimi jinoiy jazolarni ijro etishning muqobil mexanizmi sifatida, shuningdek, jinoyatchilarni jamiyatga qayta moslashtirish va qayta jinoyatchilikni kamaytirish vositasi sifatida katta ahamiyatga ega. O'zbekistonda probatsiya faoliyatini rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish uchun probatsiya nazorati ostidagi shaxslar bo'yicha ochiq elektron axborot tizimini yaratish muhim hisoblanadi.

Bunday yondashuv nazorat ostidagi shaxslar faoliyatini samarali kuzatish va takroriy jinoyatchilik darajasini pasaytirish imkonini beradi. Shu bilan birga, elektron axborot tizimi jamoatchilik uchun shaffoflikni ta'minlab, ilmiy tadqiqotlar va xalqaro solishtirma tahlillarni amalga oshirishni osonlashtiradi.

Natijada, probatsiya tizimini modernizatsiya qilish va ochiq, elektron resurslar orqali ma'lumotlarni boshqarish O'zbekiston jinoyat-ijroiya tizimining samaradorligini oshirish, jazoni ijro etish muassasalaridagi yuklamani kamaytirish va jinoyatchilarni ijtimoiy moslashtirish jarayonini tizimli ravishda takomillashtirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar / References

- [1] O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi. 1997-yil 25-aprel. Rasmiy nashr. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi axborotlari.(Oxirgi o'zgartirish va qo'shimchalar bilan);
- [2] Jinoyat-ijroiya huquqi: Darslik. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2022. – 206 b;
- [3] <http://lex.uz/uz/docs/-7050441> O'zbekiston Respublikasining "Probatsiya to'g'risida"gi Qonuni;
- [4] "Probation Institute – the experience of foreign countries" — Gulnoza YUSUPDZHANOVA, Tashkent State University of Law, Specialized Branch, Tashkent (maqola);
- [5] O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali. <https://share.google/iryTX66nnIr4aaoty>;
- [6] <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1993/47/enacted> - Probation Service Act 1993 (United Kingdom). UK Parliament Act. – London, 1993;
- [7] GOV.UK. <https://share.google/>.